

HANAFIY MUHADDIS-FAQIHLARINING “ROF’UL YADAYN” HADISLARIGA BILDIRGAN MUNOSABATLARI

Obidov Qosimjon Xusanovich

Imom Buxoriy nomidagi

Toshkent islom instituti

magistratura bosqichi talabasi

qosimjon.abidov@gmail.com

+998946163560

Annotatsiya: Bu maqolada namozdagi “rof’ul yadayn” masalasi borasida vorid bo’lgan hadislariga nisbatan hanafiy muhaddis-faqihlarning yondashuvi va dalillari o’rganilgan. Makur amaliyot borasidagi turli xil hadislarini o’rganish orqali, hanafiy mazhabi ulamolarining bu masaladagi dalillari va ularning qay darajada kuchli ekani ko’rib chiqilgan. Shuningdek boshqa fiqhiy mazhablarning bu masalaga bo’lgan yondashuvlari bilan qiyosiy tahlil qilinib, hanafiy mazhabining o’ziga xos xususiyatlari ochib berilgan. Boshqa mazhab faqihlarining dalillariga bergan javoblarini qisqacha o’rganilgan.

Kalit so’zlar: Rof’ul yadayn, hadis, mazhab, mujtahid, sahoba, ixtilof, dalillanish, nasx, afzaliyat, ixtiyoriy.

Islom dinining asosiy farz ibodatlaridan biri bo’lgan namoz musulmonlar hayotida muhim o’rin tutadi. Namozning har bir rukni va amalining to’g’ri bajarilishi muhim ahamiyatga ega. Rof’ul yadayn, ya’ni namozda qo’llarni ko’tarish masalasi turli fiqhiy mazhablarda turlicha talqin qilingan. Ushbu masala islom tarixining dastlabki davrlaridan boshlab musulmon ulamolari orasida bahs-munozaralarga sabab bo’lib kelgan. Ayrim hadislarda Rasululloh sollallohu aylayhi vasallamning namozda qo’llarini ko’targanliklari rivoyat qilingan bo’lsa, boshqa hadislarda ko’tarmaganliklari kelgan. Hatto bu masala borasida alohida juz’lar va kitoblar ta’lif etilgan. Ularning eng qadimgilaridan ba’zilar Imom Buxoriyning “Juz’u rof’il yadayn”, Muhammad ibn Nasr Marvaziyning “Kitabu rof’il yadayn” asarlaridir¹. Hanafiy mazhabi ulamolari rof’ul yadayn masalasida o’ziga xos yondashuvga ega. Ular bu masaladagi turli xil hadislarini sinchiklab o’rganib, o’zlarining usuliy qoidalari asosida xulosa chiqarganlar.

Quyida mazhablarning bu masalaga yondashuvi o’rganib chiqiladi.

Ulamolarning barchasi takbiri tahrimada qo’l ko’tarish mustahab amal ekaniga ittifoq qilganlar.

¹ عبد الله المعروف. العرف الذكي. -ديوبند: زكريا بكدپود. -ج. ٣. -ص. ٤٨٨.

Shuningdek ikki sajda orasi, undan keyin va har bir ko‘tarilgan va egilgandan boshqa o‘rinlarda (agarchi ular borasida rivoyatlar kelgan bo‘lsada) mustahab emasligiga ittifoq qilganlar.

Rukuga ketishdan oldin, undan qaytganda va uchinchi rakatga turganda rof‘ul yadayn qilish hukmida esa ixtilof qilganlar.²

Abu Hanifa va u zotning shogirdlari bu o‘rinlarning uchallasida ham rof‘ul yadayn qilinmasligini aytganlar.

Ibn Qosimning Imom Molikdan qilgan rivoyatida ham shunday. Molikiy mazhabi faqihlari shuni ixtiyor qilgan.

Shofe‘iy va Ahmad ruku qilayotganda va undan keyin rof‘ul yadayn qilinishini aytganlar. Imom Molikdan qilingan rivoyatlardan birida ham shunday. Shofe‘iylarning ko‘pi avvalgi qa‘dadan turgandan keyin rof‘ul yadayn qilinishini mustahab deb aytishgan.³ Alloma Zurqoniy “موطأ”ga (Muvattoi Molik) yozgan sharhlarida Ibn Abdulbarrdan shunday naql qiladi: “Uning (rof‘ul yadayn) namozda bajarilishi lozim bo‘lgan amallardan ekani borasida ixtilof qilingan. Ibn Qosim ustoz Molikdan takbiri tahrimadan boshqa o‘rinda ko‘tarilmasligini rivoyat qilgan. Abu Hanifa va boshqa Kufa faqihlari ham shunday degan. Abu Mus‘ab, Ibn Vahb, Ashhab va boshqalar Molikdan Ibn Umardan rivoyat qilingan hadisga muvofiq ruku qilganda va undan ko‘tarilganda rof‘ul yadayn qilganini naql qilganlar. Avzo‘iy, Shofe‘iy, Ahmad, Is‘hoq, Tabariy va bir qancha ahli hadislar ham shu fikrda bo‘lganlar. Qaysi sahobadan rof‘ul yadaynni tark qilgani rivoyat qilingan bo‘lsa, unga amal qilgani ham rivoyat qilingan. Faqatgina ibn Mas‘uddan amal qilgani rivoyatlarda kelmagan”.⁴

Dalillarga kelsak, rof‘ul yadayn qilish ham, qilmaslik ham mutavotir yo‘lga ko‘ra yetib kelgan. Har ikkisinin ham ishonchli dalillar bilan naql qilingani borasida shak-shubha yo‘q. Ulardan kelib chiqib ba‘zilar rof‘ul yadaynga amal qilgan, ba‘zilar u hadislar mansux deya tark qilinishiga hukm qilgan. Ba‘zilar esa bu masala afzaliyat borasida, aslida qilish yoki qilmaslik ixtiyoriydir deb javob bergan. Ular quyidagilardan iborat:

Rof‘ul yadayn qilinishi borasida quyidagi dalillar mavjud:

1) Ibn Umar roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi:

“Rasululloh sollallohu alayhi vasallamni ko‘rdim, namozni boshlab, rukuga borayotganlarida va rukudan qaytganlarida qo‘llarini yelka barobarida ko‘tarar edilar”. Ibn Abu Umar o‘z hadisida qo‘shimcha qilib, “Ikki sajda orasida (qo‘llarini) ko‘tarmas edilar”, deydi.⁵

² عبد الله المعروف. العرف الذكي. -ديوبند: زكريا بكدبود. -ج. ٣. ص. ٤٨٩.

³ عبد الله المعروف. العرف الذكي. -ديوبند: زكريا بكدبود. -ج. ٣. ص. ٤٨٩.

⁴ الزرقاني. شرح الزرقاني على موطأ الإمام مالك. -القاهرة: دار الحديث، ٢٠١٥. -ج. ١. ص. ٢٢٣.

⁵ الإمام الترمذي. سنن الترمذي. -دمشق: مؤسسة الرألة، ٢٠١٧. ص. ٢٩٩.

2) Ali ibn Abu Tolib roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi:

“Rasululloh sollallohu alayhi vasallam farz namozga tursalar takbir aytar edilar va ikki qo‘llarini yelkalari barobarigacha ko‘tarar edilar. Qiroatlarini tamomlab, rukuga ketishni iroda qilganlarida ham shunday qilardilar. Forig‘ bo‘lib, rukudan bosh ko‘targanlarida ham shunday qilar edilar. Namozlarining biron joyida o‘tirgan holatda qo‘l ko‘tarmas edilar. Ikki sajdadan turganlarida ham qo‘llarini ko‘tarar va takbir aytar edilar”.⁶

3) Voil ibn Hujr roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi:

“Rasululloh sollallohu alayhi vasallamni namozga takbir aytayotganlarida va rukudan bosh ko‘targanlarida ikki qo‘llarini quloqlari barobarigacha ko‘targanlarini ko‘rganman”.⁷

4) Molik ibn Huvayris roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi:

“Rasululloh sollallohu alayhi vasallamni ruku qilganlarida va undan bosh ko‘targanlarida qo‘llarini quloqlarining yuqorisi barobarigacha ko‘tarayotganlarini ko‘rganman”.⁸

5) Abu Hurayra roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi:

“Rasululloh sollallohu alayhi vasallam namozga kirishganlarida, ruku qilayotganda va sajdaga borayotganda ikki qo‘llarini ko‘tarar edilar”.⁹

Rof‘ul yadaynni tark qilish borasida esa quyidagi dalillar mavjud:

1) Jobir ibn Samura roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi:

“Rasululloh sollallohu alyhi vasallam bizning oldimizga chiqib: “Nimaga sizlarni ikki qo‘llaringizni qaysar otning dumiga o‘xshab ko‘tarayotganingizni ko‘rayapman?! Namozda sokin turinglar” - dedilar”.¹⁰

2) Osim ibn Kulayb otasidan, u Alqamadan rivoyat qiladi:

“Abdulloh ibn Mas‘ud roziyallohu anhu:

“Sizlarga Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning nomazlarini o‘qib beraymi? deb namoz o‘qidi. Ikki qo‘lini birinchi martada ko‘targanidan boshqa ko‘tarmadi”.¹¹

3) Baro ibn Ozib roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi:

“Nabiy sollallohu alayhi vasallam qachon namozni boshlashga takbir aytsalar, ikki qo‘llarini quloqlarining yumshoq joylarigacha ko‘tarar, so‘ngra qaytib ko‘tarmas edilar”.¹²

4) Abdulloh ibn Mas‘ud roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi:

⁶ الإمام أبو داود. سنن أبي داود. دمشق: مؤسسة الرسالة، ٢٠٢٢. ص. ٢١٩.

⁷ الإمام النسائي. سنن النسائي. دمشق: مؤسسة الرسالة، ٢٠١٩. ص. ٣٠٧.

⁸ الإمام مسلم. صحيح مسلم. دمشق: مؤسسة الرسالة، ٢٠٢٢. ص. ٢٠٠.

⁹ الإمام ابن ماجه. سنن ابن ماجه. دمشق: مؤسسة الرسالة، ٢٠١٩. ص. ١٨٩.

¹⁰ الإمام مسلم. صحيح مسلم. دمشق: مؤسسة الرسالة، ٢٠٢٢. ص. ٢١٦.

¹¹ الإمام الترمذي. سنن الترمذي. دمشق: مؤسسة الرسالة، ٢٠١٧. ص. ٣٠٠.

¹² الإمام أبو داود. سنن أبي داود. دمشق: مؤسسة الرسالة، ٢٠١٧. ص. ٢٢٠.

“Nabiy sollallohu alayhi vasallam avvalgi takbirida qo‘llarini ko‘tarardilar, keyin qaytarmas edlar”.¹³

5) Abdulloh ibn Zubayr bir kishining rukuga ketayotganda va undan turayotganda ikki qo‘lini ko‘tarayotganini ko‘rib qolib, unga: “Bunday qilma, bu ish Nabiy sollallohu alayhi vasallam oldin qilib, keyin tark etgan narsa” deganlar.

6) Asvad romatullohi alayhidan shunday naql qilinadi:

“Umar ibn Xattobning avvalgi takbirda ikki qo‘lini ko‘targanini ko‘rdim. Keyin buni qaytarmadi”.¹⁴

7) Mujohid romatullohi alayhidan shunday naql qilinadi:

“Men Ibn Umar roziyallohu anhunging orqasida namoz o‘qiganman, u kishi birinchi takbirdan boshqa joyda ikki qo‘lini ko‘tarmas edi”.¹⁵

8) Ali ibn Abu Tolib roziyallohu anhu ham ikki qo‘lni ko‘tarish hadisini rivoyat qilgan bo‘lsada, amlda qo‘llarini ko‘tarmas edi.¹⁶

9) Mug‘ira aytadi:

“Ibrohimga Voil ibn Hujr roziyallohu anhunging Rasululloh sollallohu alayhi vasallamni namoz boshlaganda, ruku qilganda, rukudan boshini ko‘targanda qo‘llarini ko‘targanlarini ko‘rgani haqidagi hadisini aytgan edim, u: “Agar Voil (Rasululloh sollallohu alayhi vasallamni) shunday qilganini bir marta ko‘rgan bo‘lsa, Abdulloh ibn Mas‘ud unday qilmagan (rukuga borishda va qaytishda qo‘l ko‘tarish)ini ellik marta ko‘rgan”-dedi.¹⁷

Imom Tahoviy bunga quyidagicha aqliy dalil ham keltiradi:

“Bu masalaning nazariy va qiyosiy jihatdan javobiga kelsak: “Takbiri tahrifa farz. Unda ikki qo‘lni ko‘tarilishiga ijmo qilishgan. Ikki sajda orasida takbir aytish sunnat. Unda qo‘llarni ko‘tarish yo‘q. Ruku va undan ko‘tarilgandagi takbirda qo‘llarni ko‘tariladimi yo‘qmi ixtilof qilingan. Shunday ekan ikkisi ham sunnat bo‘lgani uchun ularning hukmi ikki sajda orasidagi takbirning hukmi kabi bo‘ladi”.¹⁸

Bu o‘rinda e’tibor berish kerak bo‘lgan muhim nuqta shuki, bu masala afzaliyat masalasidir. Ya’ni, aslida rof‘ul yadayn qilish yo qilmaslik ixtiyoriydir.

Shunday bo‘lsada ba’zi faqihlarimiz bu amalni makruhi tahrimiyl degan bo‘lsa, ba’zilari bu ixtilofli hadislarni nasx bilan yechishga qaror qilgan. Quyida ular bilan tanishib chiqamiz:

1. Hanafiy faqihlaridan “منية المصلي”ning sharhi “الكبرى” kitobining muallifi va “بدائع الصنائع”ning muallifi Alouddin Kosoniydan rof‘ul yadayn qilish makruh amal deganlari naql qilingan. Ammo bu fikrga e’tiroz bildirilgan. Agar ularning mazhab

¹³ الإمام الطحاوي. شرح معاني الآثار. لبنان: دار الكتب العلمية، ٢٠١٨. ج١. ص. ٢٩٠.

¹⁴ الإمام الطحاوي. شرح معاني الآثار. لبنان: دار الكتب العلمية، ٢٠١٨. ج١. ص. ٢٩٤.

¹⁵ الإمام الطحاوي. شرح معاني الآثار. لبنان: دار الكتب العلمية، ٢٠١٨. ج١. ص. ٢٩٢.

¹⁶ Kifoya. Shayx Muhammad Sadiq Muhammad Yusuf. -T.: Lilol-Nashr, 2018. -J. 1/3. -B. 314/584.

¹⁷ الإمام الطحاوي. شرح معاني الآثار. لبنان: دار الكتب العلمية، ٢٠١٨. ج١. ص. ٢٩٠.

¹⁸ الإمام الطحاوي. شرح معاني الآثار. لبنان: دار الكتب العلمية، ٢٠١٨. ج١. ص. ٢٩٥.

imomlaridan bunga naqliy dalillari bo'lsa, ularning gaplari qabul qilinadi. Ammo dalillari bo'lmasa, mutavotir yo'l bilan kelgan masalani makruh deyish jiddiy masala.¹⁹

Abu Bakr Jassos "Ahkamul Qur'on" (أحكام القرآن) kitobida {كُتِبَ عَلَيْكُمُ الصِّيَامُ} (Baqara surasi, 183) oyati ostida aytadi: "Agar bir masalada har ikki tarafda ham sahih hadislar vorid bo'lgan bo'lsa, bu borasidagi xilof faqatgina ixtiyor borasida bo'ladi. Ayniqsa ko'p voqe bo'ladigan masala bo'lsa"²⁰. So'ngra azonda tarje qilish, iqomatni toq aytish, basmalani jahriy aytish va rof'ul yadayn qilishni ham ular qatorida sanab o'tgan. Imom Jassos 4-asr faqihlaridan bo'lib, martabasi e'tiboridan "الكبيرى" muallifidan ham, "بدائع الصنائع"ning muallifi Alouddin Kosoniydan ham yuqori turadi.²¹ Demak bu masalaning hukmi borasida imom Jassosning gapini olish avloroqdir.

2. Hanafiy faqihlarining muta'axxirlarida bu masalaning javobi borasida nasx deyish mashhur bo'lib ketdi. Ular bu gapni ibn Humomdan olishgan. U esa buni Tahoviyga ergashgan holda ixtiyor etgan. Ma'lumki Tahoviyning nazdidagi nasx usulul fiqh kitoblaridagi nasxdan ko'ra umumiyroq ma'noga ega. Chunki u kishining nazdida afzaliyat masalasida afzal bo'lmagani afzal bo'lganiga nisbatan, dalili zaifroq bo'lgani dalili quvvatliroq bo'lganiga nisbatan mansux hukmidadir. U zotning kitoblarini o'qib chiqqan barcha shunga amin bo'ladi. Har qanday holatda ham hanafiylardan mutaqoddimroq bo'lgan olim (Imom Jassos)dan (rof'ul yadaynning) joizligi borasidagi gap mavjud ekan, hadislar ham buni qo'llab quvvatlar ekan unga (rof'ul yadaynning joizligi) taslim bo'lmasdan o'zga chora yo'q.²²

Bu masala borasida hanafiy faqihlarimiz tomonidan quyidagicha javob berilgan:

"Ma'lumki, agar ikkita sunnat bir-biriga qarama-qarshi kelib qolsa, bu boradagi sahobalarning so'zlari va amallari ustun qo'yiladi. Agar ularning so'zlari va amallari ixtilofli bo'lib qolsa, qiyos ustun qo'yiladi. Bu masalada qiyos qo'lni ko'tarmaslikni keltirib chiqadi. Chunki namozda a'zolar sokin va xushu holatida bo'lishi kerak. Bu borada Alloh taolo "Mu'minun" surasida shunday marhamat qiladi:

قَدْ أَفْلَحَ الْمُؤْمِنُونَ (١) الَّذِينَ هُمْ فِي صَلَاتِهِمْ خَاشِعُونَ (٢)

"Batahqiq, mo'minlar nojot topdilar. Ular namozlarida xushu qiluvchilardir."²³

Ellikka yaqin sahoba namozning boshida, ya'ni takbiri tahrimada qo'l ko'tarishni rivoyat qilishgan. Ular rukuda va rukudan bosh ko'tarishda qo'lni ko'tarishni esa rivoyat qilishmagan. Ibn Abbos roziyallohu anhumoning hadisida: "Qo'llar faqat yetti o'rinda ko'tariladi", deyilib, shular jumlasidan namozga kirishish payitidagi qo'l ko'tarish aytilgan.²⁴ Bundan esa boshqa o'rinlarda qo'llar ko'tarilmasligi kelib chiqadi.

¹⁹ عبد الله المعروفى. العرف الذكى. -ديوبند: زكريا بكيدود. -ج. ٣. -ص. ٤٩٢. بتغير يسير.

²⁰ أبو بكر الجصاص. أحكام القرآن. لبنان: دار الكتب العلمية، ٢٠١٣. -ج. ١. -ص. ٢٥٣.

²¹ عبد الله المعروفى. العرف الذكى. -ديوبند: زكريا بكيدود. -ج. ٣. -ص. ٤٩٢.

²² عبد الله المعروفى. العرف الذكى. -ديوبند: زكريا بكيدود. -ج. ٣. -ص. ٤٩٢، ٤٩٣. بتغير يسير.

²³ Tafsiri Hilol. Shayx Muhammad Sadiq Muhammad Yusuf. -T.: Sharq nashriyoti, 2008. -J. 4/6. -B. 58/638.

²⁴ Fiqh va aqidaga oid ixtilofli masalalar yechimi. Shayx Nuriddin Xoliqnazar. -T.: Matbaachi nashriyoti, 2024.

Xulosa qilib aytganda hanafiy mazhabida roʻul yadayn qilish hukmi mansux boʻlgan ammallardan. Bu hanafiy faqihlarning oxirgi qaroridir. Endilikda barcha hanafiy mazhabiga ergashganlar birdamlikni saqlash, fitna chiqishining oldini olish va ibodatlarini hotirjamlikda bajarishlari uchun shu fatvoga amal qilishlari, xilof qilmasliklari lozim boʻladi. Har kim oʻz mazhabi boʻyicha amal qilishi, boshqa mazhab vakillarini hurmat qilishi va birdamlikni saqlashi zarur boʻlgan ishlardandir.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar roʻyxati:

Oʻzbek tilidagi manbalar:

1. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Tafsiri Hilol. -T.: Sharq nashriyoti, 2008.
2. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Kifoya. -T.: Hilol-Nashr, 2018.
3. Shayx Nuriddin Xoliqnazar. Fiqh va aqidaga oid ixtilofli masalalar yechimi. -T.: Matbaachi nashriyoti, 2024.

Xorijiy tildagi manbalar:

- الإمام مسلم. صحيح مسلم. -دمشق: مؤسسة الرسالة, ٢٠٢٢.
- الإمام النسائي. سنن النسائي. -دمشق: مؤسسة الرسالة, ٢٠١٨.
- الإمام أبو داود. سنن أبي داود. - دمشق: مؤسسة الرسالة, ٢٠١٧.
- الإمام الترمذي. سنن الترمذي. - دمشق: مؤسسة الرسالة, ٢٠١٧.
- الإمام ابن ماجه. سنن ابن ماجه. -دمشق: مؤسسة الرسالة, ٢٠١٩.
- الإمام الطحاوي. شرح معاني الآثار. -ج. ١. - لبنان: دار الكتب العلمية, ٢٠١٨.
- أبو بكر الجصاص. أحكام القرآن. -لبنان: دار الكتب العلمية, ٢٠١٣.
- الزرقاني. شرح الزرقاني على موطأ الإمام مالك. -القاهرة: دار الحديث, ٢٠١٥.
- عبد الله المعروفي. العرف الذكي. -ج. ٣. -ديوبند: زكريا بكديود.